

## DEXKONCHILIKDA TUPROKLARNI MUXOFAZA QILISH

**Teshaboyev Nodirbek Ikromjonovich**

**Muhammadaliyev Maxmudjon Botirjon o'g'li**

**Xalilov Abrorbek Alisher o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti, zootexniya va agronomiya kafedrası o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7399630>

**Annotatsiya.** Mineral ug'itlar bilan birga tuprokka kup mikdorda ftor kabi zararli aralashmalar, radiaktiv elementlar, shuningdek, texnologiya samarasini oshirish uchun kushiladigan boshka birikmalar kelib tushadi. Mutaxassislarining baxolashlaricha, mamlakatimizdagi xaydaladigan yerlarning 90 foizini azot bilan ug'itlanishi lozim.

**Kalit so'zlar:** tuprok, boglik, nitrat, ammoniy, intensiv, pestisidlar, eroziyasiga.

### ЗАЩИТА ПОЧВЫ В ГОРНОМ ДОБЫЧЕ

**Аннотация.** Вместе с минеральными удобрениями в почву поступают такие вредные соединения, как фтор, радиоактивные элементы, а также другие соединения, которые вносятся для повышения эффективности техники. По мнению специалистов, 90% пашни в нашей стране должны удобряться азотом.

**Ключевые слова:** почва, сад, нитраты, аммоний, интенсив, пестициды, эрозия.

### SOIL PROTECTION IN MINING

**Abstract.** Along with mineral fertilizers, harmful compounds such as fluorine, radioactive elements, as well as other compounds that are added to increase the efficiency of technology come to the soil. According to experts, 90% of arable land in our country should be fertilized with nitrogen.

**Keywords:** soil, garden, nitrates, ammonium, intensive, pesticides, erosion.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va uni muxofazalash, hozirgi vaktidagi insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Bu muammolar orasida tuprok ximoyasi (muxofazasi) aloxida urin tutadi. Agar insoniyat uzi uchun zarur ozik-ovkat maxsulotlarining 88 foizini yerdan olishni e'tiborga olinsa, uning axamiyati yakkol kurinadi. Utloklar va yaylovlar xisobidan olinadigan chorvachilik maxsulotlarini xam xisobga kiritsak, bu rakam 98 foiz oshadi. Ammo tuprokning axamiyati fakatgina ozik-ovkat maxsulotlari, sanoat uchun xom-ashyo yetishtirish bilan chegaralanmaydi. Tuprokning ekologik jumladan, uning kuruklikdagi biogeosenoz sistemasidagi v abiosferadagi) roli bekiyos.

Yer kuruklik kismining nixoyatda yupka ktalami xisoblangan tuprok koplami orkali yer pusti, atmosfera, gidrosfera v atuprokda yashovchi kup sonli organizmlar orasidagi murakkab modda va energiya almashinish jarayoni boradi. Xozirgi zamon tanikli ekolog olimlaridan biri J.Darst (1968) ta'kidlaganidek, «Tuproq-eng kimmatli kapitalimiz (boyligimiz). Xayot va yer yuzasidagi barcha tabiiy va sun'iy biogeosenoz kompleksining bexatarligi oxir okibatda yerning eng yuza kismini tashkil etuvchi, nixoyatda yupka katlamiga boglik». Bundan tuprok koplaminig muxofazasi undan okilona foydalanish va unumdorligini doim oshirib borish soxasida insoniyat oldida katta mas'uliyatli vazifalar borligi namoyon buladi.

Tuprok turli ta'sirlar natijasida tez buziladigan va amalda deyarli tiklanmaydigan tabiiy resursdir.

Xisoblarga kura 10 sm kalinlikdagi tuprok katlamining xosil bulishi uchun 1400-1700 yil kerak. Chunki taxminan 100 yilda atigi 0,5-2 sm tuprok katlami xosil buladi. Bundan katlamni suv eroziyasi 20-30 yildayok olib ketishi mumkin.

Tuproq buzilishi va ifloslanishining sabablari kup bulib, tuprokning regional va ekologik geografik xususiyatlarini e'tiborga olmagan xolda kishilarning yuritadigan ishlab chikarish xujalik sharoiti bilan boglik.

Tuprokka ta'sir etish natijasida yuzaga keladigan salbiy okibatlardan biri tuprokning suv va shamol eroziyasi jarayonlaridir. Aytilganidek, eroziya insoniyat uchun katta ofat, xosildorlik dushmanidir. Uzbekistonda bu jarayon keng tarkalgan bulib, xaydalma yerlarning deyarli 70 % eroziyalashgan.

M.N.Zaslavskiy (1979) xisobicha, ana shunday yerlardan mamlakat buyicha xar yili 90 mln.t.galla kam olinadi. Sobik SSSR ning fakat Yevropa jismida suv eroziyasiga uchragan yerlar 50 mln.gektar bulib, bu maydonlardan 20 dan 60 foizgacha xosil oz olinadi. Urta osiyoning paxtachilik rayonlarida irrigasiya eroziyasi natijasida 300-400 ming.t. paxta xosili kam olinadi.

Sugorilib dexkonchilik kilinadigan maydonlarda tuprokning kayta (ikkilamchi) shurlanish va botkoklanishi kabi salbiy jarayonlar rivojlanib bormokda.

Dunyo buyicha sugoriladigan yerlarning deyarli 40 % turli darajada shurlangan. Xozirgi vaktida jaxon dexkonchiligi shurlanish natijaisda xar yili 200-300 ming gektar eng kimmatli sugoriladigan yerlarni yukotgan. Umuman tuprokning kayta shurlanishi natijasida dunyoning turli mamlakatlarida 26 mln.ga yer k/x oborotidan chikib ketgan (V.A.Kovda, 1974).

Bu jarayon Uzbekistonda xam keng avj olgan. Turli darajada shurlangan yerlar maydoni 1968 yildagiga nisbatan 1987 yilga kelib 770 ming.ga kupaydi va xozir 1970,7 mng ga (Uzb. Sugoriladigan yerlari 4,2 mln. ga tashkil etadi. Yerning kayta shurlanishi tufayli jumxuriyatda 167,8 ming.ga maydon yaroksiz xolga kolgan, 600 ming ga yer botkoklangan. Kupincha bu xol yerni normadan ortikcha sugorish, koolektor zovur sistemalarining yomon ishlashi tufayli yuzaga keladi.

Sun'iy suv xavzalarining keyingi yillarda kup vujudga keltirilishi natijasida, daryo vodiylaridagi strukturasi oson buziladigan yerlar unumdorligi va utloklar maxsuldorligi kamayib ketdi.

Keyingi yillarda yer sharida maydonlarning saxrolanish jarayoni kuchaymokda. Xozirgi kit'alar yuzasinin g36-40 % i chulga aylangan. Xar yili 25 mln.ga yer saxrolarga aylanmokda.

Gumus tuprok unumdorligini belgilovchi muxim omildir. Lekin keyingi yillarda tuprokning xolati nixoyatda yomonlashuvi natijasida Urta osiyoning paxtachilik rayonlarida tuprok chirindisi kariyib 40-50 % kamaydi. Tarkibida 1,5-2 % gumus bulgan sugoriladigan tuproklarda fakatgina 0,7-0,9 % chirindi koldi xolos. Natijada tuprokning fizik xossalari yomonlashib. Yerg solinadigan mineral ugитlarning samaradorligi kamayib ketdi. Tuprokda gumusning kamayib ketish jarayoni (degumifikasiya) kuplab mamlakatlarda xam keng tarkalgan. Ayrim joylarda xar yili gektariga 1,5- tonnadan 8 t.gumus yukoladi. Gumus yetishmasligi va uni urnini tuldurish uchun kup mikdorda organik ugитlar solish talab etiladi.

Kishlok xujalik intensiv rivojlantirishda mineral ugитlarning roli bekiyos. Mineral ugитlar ekinlar xosildorligini 30-50 % oshiradi.

Mineral ugитlar bilan birga tuprokka kup mikdorda ftor kabi zararli aralashmalar, radiaktiv elementlar, shuningdek, texnologiya samarasini oshirish uchun kushiladigan boshka birikmalar kelib tushadi. Mutaxassislarning baxolashlaricha, mamlakatimizdagi xaydaladigan

yerlarning 90 foizini azot bilan ugitanishi lozim. Azot ugit bilan nitrat, ammoniy va amid formasida yerga tushadi. Tuprokda nitratning kup tuplanishi, ekinlar tarkibida xam belgilangan normadagidan ortib ketishiga, odamlar va xayvonlarning zaxarlanishiga olib keladi. Kuruk moddasida 0,2-0,5 azot nitrati bulgan usimliklar xavfli xisoblanadi. Shuning uchun donli ekinlarning xar gektariga 180 kg, chopik kilinadigan ekinlarning xar gektariga 150 kg dan ortik azot solish zararlidir. Fosforli ugitlarning uziga xos xususiyatlaridan biri, ularning tarkibida ftor aralashmalari, radiaktiv elementlardan uran, radiy va stronsiyning borligidir. tuprokka 3 s superfosfat bilan birga 1,5-10 kg gacha stronsiy xam kelib tushishi mumkin. (S.G.Skoropanov, 1980). Fosfortida 3,5-4 foizgacha ftor mavjud.

J.Sattorov ma'lumotlari (1990) buyicha Koratov fosforitlaridan tayyorlangan 1 t.ammofos tarkibida 164 kg ftor bor. U kup superfosfatda 80, oddiy superfosfatda 122 kg tashkil etadi. Tuprokda ftorning nixoyatda kupayib ketishi uning uz-uzidan tozalanish xususiyatini pasaytiradi. Usimliklarda modda almashinuvini buziladi, barglarning nafas olishi, fotosintez jarayonining tezligi pasayadi.

Ammofos ishlab chikarishda juda kup chikindi chikadi. Bir tonna fosfor xom ashyosini kayta ishlash jarayonida 1,5 tonna chikindi chikishini aytish mumkin.

Fosfogips meliorants sifatida 5-20 t/ga xisobidan kullanilganda tuprokda 400 kg gacha, stronsiy 100 kg ftor tushadi. 40 t/ga kullanilganda eng yukori mikdorda stronsiy tuplanadi. (V.G. Mineyev, 1988). Keyingi yillarda dunyo mikyosida pestisidlardan foydalanish kupayib bormokda. Xar yili jaxonda 1,25 mln.tonnadan kup pestisid chikarilmokda. 1970 yillarda pestisidlardan foydalanish AKSh da urtacha 0,24 kg/g, Garbiy Yevropada 0,3 kg/ga, Yaponiyada 1,74 kg.ni tashkil etadi. Urta Osiyoning paxtachilik tumanlarida gektariga 20 kg dan tugri keladi.

Kullaniladigan pestisidlarning yarmi mutalen ya'ni xayvonlar va odamlar irsiyatiga ta'sir etib, tabiatni uzgartiradigan turiga tugri keladi. Shuning uchun pestisidlar tonna ogirliги mikdoriga kura kimyoviy ifloslanishning 0,2 foiz tashkil etsada, bu moddalar yukori biologiya faoliyati jixatidan nixoyatda xavflidir.

## REFERENCES

1. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.
2. Teshaboyev, Nodirbek, et al. "ECOLOGICAL CULTURE IS A DEMAND OF TODAY." Конференции. 2021.
3. Эшпулатов, Ш. Я., Тешабоев, Н. И., & Мамадалиев, М. З. У. (2021). ИНТРОДУКЦИЯ, СВОЙСТВА И ВЫРАЩИВАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЕ СТЕВИЯ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОГО ДОЛИНЫ. *Евразийский Союз Ученых*, (2-2 (83)), 37-41.
4. Тешабоев, Н. И., & Бобоев, Б. К. (2022). Влияние качества зернопроизводства на эффективность урожая. *Science and innovation*, 1(D3), 31-34.
5. Teshaboyev, N., Muqimov, Z., & Abduraximova, M. (2021, July). THE EFFECT OF DEEP PROCESSING ON COTTON YIELD BETWEEN COTTON ROWS. In *Конференции*.
6. Тешабоев, Н., Мамадалиев, М., Абдуллаева, Г., & Матмисаева, Ш. (2021, August). FIGHT AGAINST THE SPIDER IN THE FIG: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1400>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

7. Кодиров, Ж., Тешабоев, Н., Тешабоева, М., Абдуллаева, Г., & Мухторов, Ш. (2021, August). PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1405>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
8. Nodirbek, T., Muhammadkarim, M., & Zohidjon, M. (2021). Natural screen sanded sands field water capacity. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1080-1082.
9. Жамолов, Р., & Абдуллаева, Г. Х, айдарова, Н., & Тешабоев, Н.(2021, August). In *THE ROLE OF WATER AND SALT IN THE LIFE OF BEES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1>* (Vol. 1334).
10. Xaydarov, J., Teshaboyev, N., Mamadaliyev, M., & Voxobova, S. (2021, July). QUARANTIC FACILITIES OF PLANTS IN GREENHOUSES AND WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF FIGHTING AGAINST THEM. In *Конференция*.
11. N Teshaboyev, M Teshaboyeva, Z Sheraliyeva... (2022) *KUZGI BUG 'DOYNI ASRNAVI HOSILDORLIGIGA URUG 'EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI - Science and innovation,1/122-125*